

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHDA
KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV**

Bozorboyeva Mohira

Andijon davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti tyutori

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida katta maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy kompetensiyalarini o'zlashtirishi jarayoni muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *kompetentsiya, ma'lumot va natija, yangi bilimlar bilan qurollanish, alohida mustaqil qaror qabul qilish.*

Bugungi kun tarbiyalanuvchisi bilim olish mobaynida kompetensiyaviy yondashuvga asosiy e'tiborini qaratishi lozim. Quyidagi ta'riflar asosida kompetensiya tushunchasining tahlilini ilmiy asosda o'rganib chiqamiz.

- kompetentsiya (lot.kompetenslar - mos, qobiliyatli, bilimli)
- turli kasb sohalarida turfa salohiyatga erishgan shu sababli ham jamiyat orasida obro'- e'tiborli bo'lgan individning xususiyati;
- kompetentsiya – haqiqiy hayot faoliyatini amalga oshirish iste'dodi, bolani jamoaga kirishishida to'plangan ko'nikmasi,real, hayotiy harakatni amalga oshirish qobiliyati va shaxsning faoliyatga kiritilishi paytida olingan malakaviy xususiyat; Duch kelgan ikki holatga – ma'lumot va natijaga erishgani uchun ayni kompetensiyalarni yuksaltirish manbaning mahsulotga aylanishini belgilab beradi;
- kompetentsiya –biron bir ma'lumotlar bazasini bilish bilan birgalikda masalalarni o'rganishda har tomonlama tayyorlanishdir.Kompetensiya bilish va ko'nikma hosil qilish mahoratini yuzaga chiqarishdir. Shaxs o'z umri davomida egallagan bilimlarini oshirib borish orqali o'z izlanishlarini keng omma hayotida qo'llab boradi.

Bu jarayon

- yangi bilimlar bilan qurollanish;
- alohida mustaqil qaror qabul qilish imkonini beradi.

Turli adabiyotlarda “kompetentlik”so'zi har xil tavsiflanadi:

- bilish doirasi, mahorat hamda ko'nikmalarni ishlatishda, nazariy va amaliy tayyorlik;
- so'nggi axborotlarga ega bo'lgan muammolar ko'lami;
- bu sub'ektning o'z holati bo'yicha moslashgan masalalar majmui.

Kompetentsiya va kompetentlik, V.A.Metaevaning ta'kidlashicha biri ikkinchisini taqazo etuvchi va o'zaro aloqador tushunchalardir: kompetentsiyaga ega

bo'lmagan mustaqil shaxs uni muhim ahamiyatga ega vakolatli shaxs ijtimoiy ahamiyatga ega jihatlarda to'liq o'rinlarda ochib berolmaydi. A.B.Xutorskoy "kompetentlik" va "kompetentlik" tushunchalarini quyidagicha ajratadi: Lotin tilidan tarjima qilingan "kompetensiya" so'zi- "vakolat" degan ma'noni anglatib, shaxs yaxshi biladigan, bilim hamda ko'nikmaga ega bo'lgan masalalar majmuasini bildiradi.

Muayyan sohadagi vakolatli shaxs tegishli bilim va qobiliyatlarga ega bo'lib, unga ushbu sohani oqilona baholash va unda samarali harakat qilish imkonini beradi.

Umumiy va individualni ajratish uchun biz tez-tez ishlatiladigan "kompetentlik" sinonim tushunchalarini ajratamiz.

Kompetentsiya – insonning ma'lum bir imkoniyatga ega bo'lishi, shuningdek shaxsning jarayon holatiga alohida munosabati.

Ushbu tushuncha ma'no jihatidan ancha kengdir. U o'rganish natijalarini (bilim va ko'nikmalar), qadriyat yo'nalishlari tizimi, odatlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Kompetensiyalar faqatgina ta'lim-tarbiya sohasida shakllanmay, balki turli jabhalarda oilada do'stlar davrasida, jamiyatning turli bo'g'inlarida vujudga keladi. Shu o'rinda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni yuzaga chiqarish shaxsning alohida holatiga bog'liq.

V.D. Shadrikov ta'rifdan kelib chiqadiki, unga ko'ra kompetentsiya - bu kimnidir yaxshi biladigan masalalar, kimningdir vakolatlari, huquqlari doirasi.

"Shunday qilib biz kompetentlik deganda faoliyat predmetiga emas, balki faoliyat bilan bog'liq masalalar doirasiga taalluqli ekanligini ko'ramiz. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, vakolatlar - bu kimdir muvaffaqiyatli hal qila oladigan faoliyat bilan bog'liq funktsional vazifalar [4]

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv kompetensiya kompetentlikning asosiy tushunchalari tahlili A.G.Bermus, V.A.Boltov, I.A.Zimney, V.V.Kraevskiy, O.E.Lebedev, E.I.Serikov, V.P.Simonov, A.V.Xutorskiy va boshqalarning tadqiqotlarida keltirilgan. Ko'pchilik tadqiqotchilar ham shunday fikrda[2] Bu kompetentsiya oldindan belgilangan ijtimoiy talab (norma), kasbiy yoki funktsional xususiyat, kutilayotgan o'quv natijalari hisoblanadi. Shunday qilib, kompetensiyaga asoslangan yondashuv tarbiyalanuvchilar maktabgacha ta'lim muassasasida oladigan mavhum nazariy bilimlarga muqobil ravishda, turli xil hayotiy vaziyatlarda olingan bilimlardan foydalanishga o'rgatish sifatida paydo bo'ldi. Haqiqiy voqelikning mavjudligi va bu voqelikda harakat qilish qobiliyati kompetentsiyani rivojlantirishning zaruriy shartidir [4]

Hozirga kelib maktabgacha ta'lim sifatining samardorligi kompetensiyaviy yondashuvga bog'liq bo'lib qolmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, har bir tarbiyalanuvchining yoshiga mos holatda ko'rgazmali qurollar bilan tanishtirib borish lozim.

"Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari

bular:

Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi.

O‘yin kompetensiyasi – bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi. O‘quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me‘yorlariga rioya qilgan holda o‘zini tuta olish mahorati.

Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish

Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari.

Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish” [3].

Kompetentlilik – (lotincha: competens – layoqatli, qobiliyati bor) Kompetentlilik faqat tor doiradagi bilim, ko‘nikma, malaka bilan bog‘lanib qolmay, balki faoliyat markazlarida bolalar bilan birga jamoa bo‘lib ishlash layoqati, muloqot vositalaridan turli vaziyatda foydalana olish, haqiqiy baholay olish, turli yangiliklardan o‘z o‘rnida foydalana olish kabi jihatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim–o‘quvchilarni o‘zlari erishgan bilim salohiyatini haqiqiy hayotning turli jabhalarida qo‘llay olishga qaratilgan ta‘limdir[2]

Quyidagi tayanch kompetensiyalar mavjud:

1. Kommunikativ kompetensiya

Insonlar bilan muloqotga kirisha olishi, muloqot jarayonida fikrini to‘g‘ri bayon qila olishi, jamiyatga moslasha olgan holda o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga rioya etishi, suhbatlashish jarayonida suhbatdoshining fikrini hurmat qilgan holda uni ishontira olishi, har xil ziddiyatli holatlarda ehtiroslarini boshqargan holda kelishmovchiliklarni bartaraf etgan holda hal qilish.

2. Axborot bilan ishlash:

Suhbatlashish jarayonida axborot manbaalaridan foydalana olish hamda hayotga tadbiq eta olish;

3 O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi:

Inson hayoti davomida o‘z –o‘zining ustida ishlashi, o‘zini rivojlantirib borishi, insoniy xislatlarga ega bo‘lgan holda o‘qib –o‘rgangan bilimlarini hayotiy

vaziyatlarda qoʻllay olishi

4. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

5. Umummadaniy kompetensiyalar:

Yurtga sadoqatli, odamlarlarga mehr, milliy qadriyatlar va sanʼat namunalariga nisbatan hurmat, kiyinish madaniyatiga eʼtibor berish.

6. Matematik savodxonlik:

Bugungi tobora rivojlanib borayotgan texnika taraqqiyoti davrida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS taʼlim tizimiga kirib keldi. Bunga sabab qilib esa davlat va jamiyatning tubdan oʻzgarishi, zamonaviy texnologik vositalarning jadal hayotimizga kirib kelishi, oldingi avlod vakillariga nisbatan intellektual salohiyati yuqori boʻlgan yoshlarning oʻsib kelayotganligini keltirib oʻtishimiz mumkin.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning sifatli taʼlim olishlari, hayotga boʻlgan qiziqishlarini oshirishlari, bolalarning boʻsh vaqtlaridan foydalanib aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishlari, ulardagi ijodkorlikni mahoratini koʻrsata olishlari uchun har kungi faoliyatini rivojlantiruvchi markazlardan foydalanishda yangi pedagogik texnologiyalardan biri – “Uzum pishdi, bogʻga kir” oʻyini texnologiyasi orqali amalga oshiriladi.

Bu oʻyinni barcha guruhlarda oʻynash yaxshi samara beradi.

Har bir guruh uchun “Uzum” maketi tarqatiladi. Uzum bargidagi topshiriqqa asosan uzum “pishiriladi”. (Tarbiyalanuvchilar uzum donalariga milliy oʻyinlarni nomlarini aytadi guruh tarbiyachisi esa har bir aytilgan milliy oʻyinga qarab danakchalarga yopishtiradi.) Qaysi guruh topshiriqni toʻgʻri va tez bajarsa, shu guruh gʻolib hisoblanadi

Tarbiyalanuvchining yetuk kamoloti uchun ota-ona bilan hamkorlik bugungi kunda muhim sanaladi

Bu vaziyatda:

-tarbiyalanuvchi ota-onasining maktabgacha taʼlim tashkiloti haqidagi oʻz qarashlarini inobatga olish;

-farzandlarining maktabgacha taʼlim muassasalariga kelgan ilk kundan ota-onalar bilan birgalikda hamkorlik qilish;

-ota-onalarni faoliyat jarayonlariga qatnashishini taʼminlash;

-ota-onalarning turli toʻgarak hamda ochiq eshiklar kunida faol ishtirok etishini taʼminlashdan iborat;

Ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borishda har bir ishni rejalashtirish lozim.

Tarbiyalanuvchilarning faoliyatlarga majburlab qatnashtirish mumkin emas. Bolani faoliyat jarayonida majburlab qatnashtirsak, faoliyatlardan zerikish va mashgʻulotga boʻlgan qiziqishining susayishiga olib kelishi mumkin.

Muhim jihati shundaki, bola maktabgacha taʼlim muassasasiga kelgan kundan boshlab maktabga tayyorlab borish lozim. Bu ishlarni katta va tayyorlov guruhlarida

boshlash kichik guruhga nibatan yaxshi natija bermaydi.

Bu holatga chuqurroq yondashadigan bo'lsak, bu ishlarni oldindan boshlash lozim. Bu holatda tarbiyalanuvchining faoliyat jarayonida diqqatini, qiziquvchanligini va faoliyat davomida berilgan topshiriqlarni o'zi mustaqil bajarish qiyin tuyuladi, ammo bu vaziyatdan chiqib ketish tarbiyachining mahoratiga bog'liq.

Shunisi muhimki, bugungi kun tarbiyachisi o'z ustida ishlamasa, maktabgacha ta'lim sohasida o'sish bo'lmaydi. Bugungi kun tarbiyachisi doimiy izlanishda bo'lishi, faoliyat jarayonida turli usullardan foydalanishi, maktabgacha pedagogika sohasida horij tajribalarini qo'llay olishi muhim. Uzluksiz ta'limning tayanchi maktabgacha ta'lim tizimidir. Tayanch bo'lmasa poydevor qulaydi. Shuni inobatga olgan holda kelgusi yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash bugungi kun tarbiyachisining oldidagi muhim vazifadir.

Bolaning jamiyat tajribasini o'rganib borishi hamda madaniylilikka erishish jarayoni oson kechmaydi. Bunda bola bir tomondan jamiyatga moslashishi, ikkinchi tomondan madaniylik xislatlarini o'zida mujassam etib borish kerak bo'ladi.

Tarbiya va ta'limning bola hayotida o'рни muhim bo'lib, uni shaxs sifatida rivojlanishida ildam odimlatadi. Inson kamolotining yuksalishida turfa bosqichlari mavjud. Kichik yosh bosqichidagi tarbiya inson rivojlanish jarayonida muhim o'rinni egallaydi.

Faoliyat davomidagi usullar boshidan oxirigacha tarbiyaning muhim jihati hisobladi.

5-7 yosh davri eng murakkab davrlardan biri sanaladi. Ya'ni "men o'zim" haqiqiy motivatsiyaga aylanadi. Bolaning mustaqil fikrlashi shu davr oralig'ida shakllanadi. Bu jarayon jamiyat a'zolari bilan muloqot jarayonida yuzaga keladi. Shundan so'ng bola shaxsiy fikrlarini himoya qila oladi va uni hayotiy vaziyatlarda o'rinni qo'llay boshlaydi. Og'il bola yoki qiz bolaga xos yurish turish qoidalariga amal qila boshlaydi.

Yetti yoshli bolalar nutqi passiv leksika hisobiga boyishda davom etadi. So'zlashuv muloqotning quroliga aylanadi. Bu vaqtda harakatchanlik rivojlanib, jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllantirish sohasidagi kompetensiyalar yuz beradi: yurish va yugurish mukammallashadi, bir va ikki oyoqda sakrashni o'rganib oladi turgan joyida balandlikka va uzoqlikka sakray oladi. Tayyorlov guruh bolasining maktab ta'limiga tayyorlanishida maktab davri faoliyati uchun maktabgacha ta'lim ko'prik bo'la olishi hamda oila bilan hamkorlikda maktabgacha ta'lim sharoitidan maktab ta'limiga hech bir ziyonsiz ta'minlab berishi lozim.

Davr o'tishi bilan o'zgarmaydigan madaniy taraqqiyot mavjud. Masalan, buyuk ajdodlarimiz Alisher Navoiy, Mashrab, Huvaydo, Abdulla Avloniy kabi madaniyat arboblarning yuksak xislatlari bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotgan emas.

Haqiqatdan ham hozirgi davr muhiti yoshlardan yangicha fikrlash,

dunyoqarashni talab eta boshladi.

Yangicha taraqqiyotning talabiga ko'ra bugungi kun shaxsi innovatsion fikrlaydigan, yangiliklarga intiluvchan, yaratuvchan, shijoatli bo'lmog'i davr talabidir. Madaniy merosimizni bilmay turib kelajak yoshlarni tarbiyalab bo'lmaydi.

Biz bilamizki, qadimdan inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti otabobolarimizning boyligi hisoblanmish ilm-u ma'rifatdadir.

“Jamoat xizmatida bolgin, hadis, fiqh ilmlarini o'rgan, johil so'fiylardan o'zingni saqla, hargiz shuhrattalab bo'lmaginkim, shuhrat ofatdur, mansabni ko'zlamagil. Noming tillarga kam olinsin, qabulgohingga nomingni yozma, xonaqoni maskan qilmagil, hukmdorlar va ularning kishilari birla do'stu hamsuhbat bo'lma, oz so'zla, kam egil, ko'p uxlama, halol egil va haromdan saqlan, hamma kishilarga shafqat ko'zi birla boq, tashqi ko'rinishingga oro bermakim, zohirga oro berish botin (dil, qalb) ning xarobligidandir, kishidan xayr so'ramagil, kishini xizmatga buyurma...” [1,68b]

Turkistonning shayxul mashoxi deya e'tirof etilgan Ahmad Yassaviy shaxs yetuklashishida nafsni tiyish, halollik, mol-dunyoga hirs qo'ymaslik adolatli bo'lishni o'z she'rlarida tarannum etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. K. Hashimov, S. Nishonova. Pedagogika tarixi. II qism. darslik.-Toshkent-2005 yil 68 b
2. fayllar.org/tayanch-kompetensiyalar.html
3. Ilk qadam davlat o'quv dasturi
4. <https://goaravetisyan.ru/uz/kompetentnostnyi-podhod-v-sovremennom-obrazovanii-kratko-kompetentnostnyi-podhod-kompetentnostnyi/>